

RAQAMLI IQTISODIYOTNING BUGUNGI KUNDA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA MUAMMOLARI

Alaxonova Nafisa Luqmonxon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali

Iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

yo'nalishi talabasi

Email adress (alakhonovanafisa@gmail.com)

Annotatsiya: Maqolada raqamli iqtisodiyotning mamlakatlarda rivojlanishi, raqamli iqtisodiyot bizga qanday yengilliklar olib kelishi, uning iqtisodiy ahamiyati va bugungi kunda mamlakatlar va davlatlarda rivojlanib ularning iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o'rni, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda yuzaga keladigan muammolar va shu muammolarni yechish usullari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: tendensiya, globallashuv, murojaatnoma, veb-iqtisodiyot, internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot, elektron integratsiyalash.

Raqamli iqtisodiyot rivojlanib borar ekan, odamlar Internet orqali turli xil ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'lishdi va ular dunyoga ma'lumot uzatish sub'ektiga aylanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bundan tashqari, ular ko'pincha bepul bo'lishadi. Axborot olish va tarqatish bilan bir qatorda, tovar sotib olish va sotish, ishga buyurtmalar qabul qilish kabi turli iqtisodiy faoliyatda shaxs nuqtai nazaridan ishtirok etish imkoniyatlari kengaymoqda. Boshqa tomondan, so'nggi yillarda tengsizlik muammosi global muhokama mavzusiga aylandi. Ular orasida ko'pincha fon yoki sabab sifatida tilga olinadigan mavzular globallashuv va raqamlashtirishdir. Bundan tashqari, nomutanosiblik muammosi bilan bog'liq holda ijtimoiy bo'linishlar va nizolar rivojlanmoqda, degan fikr ham mavjud.

Raqamli iqtisodiyotni boshqa iqtisodiy yo'nalishlar kabi 0 dan boshlab o'rganish yoki tashkillashtirish kerak emas.

Raqamli iqtisodiyotga o'tganlikning asosiy belgilari:

- yuqori darajada avtomatlashtirilganlik;
- elektron hujjat almashinuvi;
- buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyalashuvi;
- ma'lumotlar elektron bazalari;
- CRM (mijozlar bilan o'zaro munosabat tizimi) mavjudligi;
- korporativ tarmoqlar.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot tushunchasi bir qator mamlakatlarning iqtisodiyotida va amaliyotida paydo bo'ldi. Bu raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot sohasida inqilob va iqtisodiyotning globallashtirish jarayonlarini tezlashtirish bilan ajralib turdi. Ulardan foydalanish samaradorligi ortib borayotgan bilimga aylantirildi va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tobora kengayib bormoqda. [1]

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan boorish imkoniyatini beradi" deb ta'kidlab o'tganlar. [2]

Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etishga allaqachon kirishilgan. Jahon iqtisodiyotining globallashtirish va texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan erishib bo'lmaydi.

Raqamli iqtisodiyot – raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog'liq iqtisodiy faoliyat, hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar yig'indisidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham takidlanadi.

Bugun raqamli texnologiyalar barcha sohalarga va odamlar hayotiga jadal kirib boryapti. Mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish eng muhim vazifaga aylangan. Prezidentimizning 2020 yil 28 apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida 2023 yilga borib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2, ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravar oshirish, ular eksportini 100 million AQSh dollariga yetkazish vazifasi qo'yilgan.[3]

Raqamli iqtisodiyot axborot texnologiyalaridan faol foydalanishga asoslangan iqtisodiy jarayonishtirokchilarining o'zaro aloqalarining yangi paradigmasidir.

Ammo raqamlashtirish darajasi, raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi, texnologik ixtirolarning kechikishi tufayli O'zbekiston hali ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha yetakchilardan biri emas. [4]

Iqtisodiy tizimni raqamlashtirishning aniq afzalliklari quyidagilar:

- A) robotlashtirish yordamida mehnat unumdorligini oshirish va bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish;
- B) Iqtisodiy tizim tendentsiyalariga rioya qiluvchi korxonalar boshqa korxonalarga nisbatan inkor etib bo'lmaydigan raqobat ustunligiga ega bo'ladilar.
- C) yangi ish o'rinlarini yaratish;
- E) Kambag'allikni qisqartirish.

Yuqoridagi fikrlar va mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bogʻlangan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyatdir.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga birinchi navbatda muammo bu telekommunikatsiya infrastrukturasi va aloqaning yaxshi emasligidir. Qachonki mamlakatda axborot texnologiyalari, telekommunikatsiyalarning aloqalari yaxshi bo'lsa shundagina raqamli iqtisodiyot ham jadal sur'atlar bilan rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.researchgate.net/publication/356857900> **RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI AFZALLIKLARI VA AMALIY AHAMIYATI**2.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24yanvarda Oliy Majlisga yoʻllagan Murojaatnomasi
3. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/11083> Nodir JUMAYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
4. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich, & Saitov Sirojiddin Abduvalievich. (2022). **RAQAMLI IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNESNING O'RNI**. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7329523>